

TUT KO'CHATLARIDAGI ASOSIY DOMINANT TUR ZARARKUNANDALARINING RIVOJLANISHI.

Qambarova Muxtasar Hakimjanovna
Katta o'qituvchi mustaqil tadqiqotchi
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O'zbekiston

РАЗВИТИЕ ОСНОВНЫХ ДОМИНАНТНЫХ ВИДОВ ВРЕДИТЕЛЕЙ НА САЖЕНЦАХ ШЕЛКОВИЦЫ.

Камбарова Мухтасар Хакимжановна
Старший преподаватель, независимый исследователь
Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий
Узбекистан

DEVELOPMENT OF MAJOR DOMINANT PEST SPECIES IN MULBERRY SEEDLINGS

Qambarova Muxtasar Hakimjanovna
Senior Lecturer, Independent Researcher
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Uzbekistan

***Annotatsiya.** Maqolada Andijon viloyati sharoitida tut ko'chatlari zararkunandalarining asosiy dominant turlari rivojlanishiga ob-havo sharoitining ta'sirini 2021-2023 yillar kesimida olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlili yoritilgan.*

***Аннотация.** В статье описан анализ результатов исследований, проведенных в период 2021-2023 гг., по влиянию погодных условий на развитие основных доминантных видов вредителей сеянцев шелковицы в условиях Андижанской области.*

***Abstract.** The article describes the analysis of the results of the research conducted in the period of 2021-2023 on the influence of weather conditions on the development of the main dominant species of pests of mulberry seedlings in the conditions of Andijan region.*

Kalit soʻzlar. *Entomofag insecta qattiq qanotlilar (Coleoptera) turkum buzoqbosh qoʻngʻizlar (Melolonthene), fenologiya birlamchi zararlanish, mavsumiy dinamika, zararkunanda*

Ключевые слова. *Энтомофаг жесткокрылый (Coleoptera) семейства Melolonthene, фенология первичной зараженности, сезонная динамика, вредитель.*

Keywords. *Entomophage insecta hard-winged (Coleoptera) family Melolonthene, phenology primary infestation, seasonal dynamics, pest*

Andijon viloyati sharoitida uchraydigan zararkunandalarning tut koʻchatlariga turlicha zarar yetkazadi. Shu sababli 2021-2023 yillar davomida ularning ichidan dominant turlarini aniqlash boʻyicha Andijon viloyatining Paxtaobod tumani “Muxammadqodir Baxor” hamda “Abdugʻani –Ziyoiddin” fermer xoʻjaliklarida va Marhamat tumani “Ipak-koʻchat klasteri”da parvarishlanayotgan tut koʻchatzorlarida tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotlardan maʼlum boʻldiki, tut koʻchatlarining yer ostki qismini Hasharotlar (*Insecta*) sinfiga mansub Qattiq qanotlilar (*Coleoptera*) turkumi Buzoqbosh qoʻngʻizlar (*Melolonthene*) oilasiga mansub Mart buzoq boshisi (*Melonotha afflicta Ball*) kuchli zararlaydi. Tut koʻchatlarining yer ustki qismini Tangacha qanotlilar yoki Kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumi, Parvonalar (*Pyralidae*) oilasiga mansub Tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis Walker*), Teng qanotlilar – (Homoptera) turkumi, Bitlar (*Aphididae*) oilasiga mansub Akatsiya biti (*Aphis medicaginis Koch.*) uchrash darajasi yuqori ekanligi aniqlanib, ushbu zararkunandalarni dominant deb belgilandi. (3.7-jadvalga qarang).

Asosiy tadqiqotlarimiz dominant zararkunanda turlarning bioekologiyasi, rivojlanish xususiyatlarini oʻrganib, ularga qarshi uygʻunlashgan kurash choralarini ishlab chiqish maqsadida olib borildi.


Andijon viloyatidagi deyarli barcha tut koʻchatzorlarida Mart buzoqboshi, Tut parvonasi va Akatsiya biti yuqori darajada zarar keltirib, bu zararkunandalar taʼsirida tut koʻchatlari rivojlanishdan orqada qolishi, barg sifatining yomonlashuviga taʼsiri koʻrsatayotganligi ilmiy tadqiqotlarimiz tahlili natijasida aniqlandi.

1 – jadval.

**Andijon viloyati sharoitida tut ko‘chatlari zararkunandalarining uchrashi,
dominant turlarning zararlash darajasi**
(Andijon viloyati 2021-2023 yy.)

№	Zararkunandalarning nomi	Uchrashi
1.	Tut parvonasi (<i>Glyphodes pyloalis</i> Walker).	+++
2.	Kuzgi tunlam (<i>Agrotis segetum</i> Den. et Schiff)	++
3.	Undov tunlami (<i>A. exclamationis</i> L.)	+
4.	May buzoqboshi (<i>Melolontha hypocastani</i>)	+
5.	Mart buzoq boshisi (<i>Melonotha afflicta</i> Ball)	+++
6.	O‘rgimchakkana (<i>Tetranychus urticae</i> Koch.).	++
7.	Tamaki tripsi (<i>Thrips tabaci</i> Lind.)	+
8.	Komstok qurti (<i>Pseudococcus komstocki</i> Kuw.).	+
9	Kichik ko‘k sikada (<i>Empoasca meridian</i> Zachv)	++
10.	Tut odimchisi (<i>Apocheima cinerarius</i> Yersch.)	++
11.	Akatsiya biti (<i>Aphis medicaginis</i> Koch.).	+++

+++ - juda ko‘p uchraydi, ++ - o‘rtacha uchraydi, + - kam uchraydi.
qisman qayd etildi.



1-rasm. Tut ko'chatlaridagi dominant zararkunandalarning zarari. (ballar hisobida)

—♦— Tut parvonasi
(*Glyphodes pyloalis* Walker).

—▲— Mart buzoq boshisi
(*Melonotha afflicta* Ball)

—■— Akatsiya biti (*Aphis medicaginis* Koch.).

2021-2023 yilning aprel-may oylari mobaynida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimizda tut ko'chatlari agrobiotsenozidagi Mart buzoq boshisi (*Melonotha afflicta* Ball), Tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis* Walker) va Akatsiya biti (*Aphis medicaginis* Koch.)ning zarari barglarda ballar hisobida aniqlandi hamda taqqoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo'jayev Sh.T. Agrotoksikologiya asoslari hamda tadqiqot o'tkazish qoidalari. – Toshkent: «Navro'z», 2018. – 143 b.
2. Xo'jayev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (II-nashr). – Toshkent: MChJ Ko'hinur, 2004. – 104 b.
Xo'jayev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: "Navro'z", 2014.- 350 b.
3. Xo'jayev Sh.T., Ochilov R.O. Tut daraxti zararkunandalari va ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralari. –Toshkent: «Ruta-Print» QK, 2006. – 15 b.
4. Nosirova Z.G'., Qambarova M.X., Norqizilov L.O. Tutning so'ruvchi zararkunandalariga qarshi kimyoviy usulning samaradorligi // Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini. 2023. № 4, B. 8-9.